



## SOYA O'SIMLIGİNİNG BIOLOGİYASI FOYDALI XUSUSİYATI, YETİŞHTİRİŞ TEKNOLOGİYASI

*Andijon qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti*

*Saksanboyeva Mushtariy Lochinbek qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada soya o'simligini kelib chiqishi ,yashash sharoiti ,tarqalishi marfologiyasi, seleksiyasi va shuni ham takidlاب o'tishimiz keraki, dorivorlik xuxusiyati va undan olinadigan mahsulotlarni ham ahamiyati katta hisoblanadi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются происхождение, местообитание, распространение, морфология, селекция соевых бобов, и, следует отметить, что большое значение имеют также лечебные свойства и получаемые из них продукты.

**Abstract:** The article discusses the origin, habitat, distribution, morphology, selection of soybeans, and, it should be noted, the medicinal properties and products obtained from them are also of great importance.

**Kalit so'zlar:** Soya, o'suv davri , navlari, poya tarqalishi, barg , foydaliligi, tarkibi,

**Ключевые слова:** Соя, вегетационный период, сорта, стеблеобразование, лист, полезность, состав,

**Keywords:** Soybean, growing season, varieties, stem distribution, leaf, usefulness, composition,

Dunyo miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish fan texnika yutuqlari va ilg'or tajribasini ishlab chiqarishga keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, uning sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash



ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublika aholisini oziq-ovqat, birinchi navbatda don mahsulotlari bilan to‘la ta’minlash vazifasini bajarish muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. Mamlakatimizda soya moyli ekinlar maydonlarining kengaytirilishi va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarning ko‘payishi aholining yog‘-moy mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish hamda chorvachilikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida o‘simplik oqsilini ishlab chiqish va ta’minlash eng katta muammolardan hisoblanadi. Bu muammoni echishda dukkakli don ekinlaridan soya o‘simpligining ahamiyati kattadir. Soya o‘simpligi dukkakli-don ekinlari oilasiga mansub, bir yillik o‘simplik, vatani Markaziy Osiyo hisoblanadi. Soya oziq-ovqat, em tayyorlashda va tuproq unumdorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Soya doni tarkibida 38-52 % oqsil, 22-25 % yog‘, yog‘ tarkibida turli vitaminlar, poxolida esa 4-5% oqsil va 5 % gacha yog‘ bo‘ladi. Soya donida oqsilni ko‘pligi jihatidan bug‘doy donidan 2,5, makkajo‘xori donidan esa 3,5 barobar yuqori turadi va soya donining oqsili tarkibida 10 dan ortiq aminokislotalar mavjud. Ko‘k massasi esa chorva mollariga oziq bo‘ladi. Soya ildizlarida barcha dukkakli o‘simpliklarning ildizlaridagi kabi havodagi azotdan foydalana oladigan tuganaklar rivojlanadi. Soya o‘simpligi ildizidagi rizobiol bakteriyalar hosil qilgan tuganaklar tufayli har gektarda 150-250 kilogrammgacha sof azot to‘playdi. Soya yorug‘lik, issiqlik va namlikni sevadigan juda qadimiylar ekin hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo dehqonchiligidagi katta maydonlarni egallaydigan ekinlarning har biri, ularni ko‘p tarmoqli ekanligidan kelib chiqib ekin maydoni belgilanadi. Ekin maydonlaringa ko‘ra soya ekini bug‘doy, sholi, makkajo‘xoridan keyingi o‘rinni egallaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, soya dunyo mamlakatlarida 100 mln. gektarga yaqin maydonga ekilib, er shari aholisining 53 foizi faqatgina soya moyini iste’mol qiladi.

Soya o‘simpligi doni va oqsilidan to‘rt yuzdan ziyod turli xil mahsulotlar tayyorlanadi va ular xalq xo‘jaligining barcha sohalarida ishlataladi.



Soyaning kimyoviy tarkibida uning inson organizmi tomonidan eng tez hazm bo‘lishi, zararsizligi bilan paxta va boshqa o‘simliklar moyidan ustun turadi.

Doni tarkibida 45% gacha oqsil va 25 foizgacha o‘simlik moyi saqlaydi. Shuningdek, soya doni tarkibida hayvon oqsilida uchraydigan barcha almashlab bo‘lmaydigan aminokislotalarni saqlaydi. Shuning uchun soya oqsilidan sut, qatiq, tvorog, pishloq, turli xil go‘shtlar, ekologik toza sifatli moy, tuxum poroshogi (tarkibida letsitin moddasi saqlaydigan) olish mumkin. Soya oqsilidan qon plazmalar, ko‘z oynaklar uchun sifatli linzalar olinadi. Bundan tashqari jun gazlamalar ishlab chiqiladi.

Soya uni qo‘shib tayyorlangan non mahsulotlari qotib qolmaydi va ular 4-5 kun davomida yumshoq bo‘lib turadi hamda faqat bug‘doy unidan pishirilgan nonlarga qaraganda ikki marta to‘yimli hisoblanadi.

Chorvachilikda soya mahsulotlari, eng sifatli va tuyimli em-xashak ozuqalari bo‘lib hisoblanadi. Soya doni tarkibidagi proteinga ko‘ra 100 kg. soya doni 134,8 ozuqa birligi saqlaydi. Bu ko‘rsatkich boshqa bironta donli yoki dukkakli ekinda uchramaydi.

Soya donidan moy zavodlarda moy ajratib olingandan so‘ng qolgan shroti tarkibida 14 xil aminokislota mavjud bo‘ladi.

Ana shu moddalar 3 kunlik jo‘jalar uchun aminokislotalarga boy ozuqa sifatida tavsiya qilinadi. Katta tovuqchilik fermalarida soya shroti bilan oziqlantirilganda ulardan olinadigan tuxum soni ortadi.

Soya oqsilidan ipakchilikda ham ozuqa sifatida foydalilanadi. Masalan Yaponiyada bir yilda besh martagacha ipak qurti boqiladi. Bunda, soya oqsilidan suyultirilgan pastalar tayyorlanib qurtlar oziqlantiriladi. Bu o‘simlik tuproq unumdoorligini oshirish borasida ham eng muhim ekinlardan biridir.

Soya dukkakli o‘simlik sifatida o‘z ildizlari orqali havodan sof azotni o‘zlashtirib oladi va tuproqni azot bilan boyitadi. Soya bugungi kun dehqonchiligidagi eng muhim ekin bo‘lib, tuproq strukturasini yaxshilab, biologik unumdoorlikni oshiradi,



o‘zidan keyin tuproqda 55-60 kg. miqdorda sof azot qoldirib ketadi. Soya ekilgan dalalarda tuproqning mikroflorasi yaxshilanadi, tuproqda biologik va ekologik tizim vujudga keladi. Chuvalchanglar, rizobium bakteriyalari va boshqa foydali organizmlar yashashi uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Ilmiy tajribalarda soya ekilgunga qadar tuproqdagagi gumus miqdori 0,65-0,72% bo‘lgan bo‘lsa, soya ekilgandan keyin kuzda gumus miqdori 0,95-1,03%ga etishi ko‘rsatib berilgan.

Muxtasar qilib aytganda, soya etishtirish bilan ikki muhim muammoni, birinchisi tuproqni biologik azot bilan boyitish, azotli o‘g‘itlarni kam sarflash orqali fermer xo‘jaliklarining samaradorligini ortishiga, ikkinchisi aholini eng sifatli, tarkibida inson uchun zararli moddalari bo‘lmasdan o‘simlik moyi bilan ta’minlashga erishamiz.

**Yetishtirish agrotexnikasi:** Soya o‘simligini ikki muddatda ekish mumkin. Birinchisi bahorda tuproq harorati 12-14 °C bo‘lganda yoki makkajo‘xori bilan bir muddatda, ikkinchi muddat takroriy ekin sifatida donli ekinlardan so‘ng ekiladi. Soyaning ertapishar navlari 1200-15000S, o‘rtapishar navlari esa 1800-21000S talab qiladi.

Soyani asosiy ekin sifatida ekishda uning navlarini to‘g‘ri tanlay bilish lozimdir.

Soya tibbiyotda o‘ta foydali, chorvachilikda hosildorlikni oshirishda samarali va qishloq xo‘jaligida hamkor ekin sifatida etishtirish uchun qulay bo‘lgan o‘simlikdir. Soya o‘simligi va undan olinadigan mahsulotlar oshqozon, me’dai-chak tizimi kasalliklarida foydali hisoblanadi. Shuningdek, soya qandli diabet kasalligini davolashda ham samaralidir.

Ular pishirilgan soya soslari bilan solishtirganda turli xil lazzat, xushbo‘y va tuzilishga ega bo‘lsa-da, ular tezroq va arzonroq ishlab chiqarilishi mumkin, shuningdek, uzoqroq saqlash muddatiga ega va odatda shu sabablarga ko‘ra ishlab chiqariladi. Xitoy uslubidagi oziq-ovqat bilan keng tarqalgan quyuq sousning



shaffof plastik paketlari odatda gidrolizlangan o'simlik oqsili formulasidan foydalanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarov K. N., Toirov A. T. Dukkakli ekinlar etishtirish texnologiyasi. – Toshkent: Mehnat, 2005. – 148 b.
2. Raximov S.R., Aripov F.N. Soya ekinlari biologiyasi va seleksiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 232 b.
3. Karimov A., Abdullayev Sh. Soya etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 176 b.